ResearchGate Google Scholar
Crossref WORLD of JOURNALS



SCIENCE AND EDUCATION NEWS

international scientific, methodical and popular journal

2024, ISSUE 2

1. SCIENCE NEWS
2. SEARCH AND THINKING
3. RESEARCH RESULTS
4. EDUCATIONAL INNOVATIONS

TELEGRAM CHANNEL

https://t.me/saen_2024

E-MAIL ADDRESS

saen_2024@mail.ru

LICENSE

283913

(99894) 201 14 48 www.saen.uz @m_alisher_2024

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

xalqaro ilmiy-metodik jurnali

2024-yil, 2-son
Jurnal 2024-yildan chiqa boshlangan

Toshkent – 2024

Muassis "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 283913-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Bosh muharrir:
Shoumarov G'ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), akademik

Mas'ul kotib:
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.
Telefon: +998 94 201 14 48
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir.

TAHRIR HAY'ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A'zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A'zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo'lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To'xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o'g'li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To'xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
Yusupov Ahmadbek Tadjiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
G'ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik

Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Qodirov Umarali Do'stqobilovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

MUNDARIJA

Shoumarov G‘ayrat. Mamlakatimizda ayollarni qo‘llab-quvvatlashning ijtimoiy-psixologik hamda huquqiy tamoyillari…… 7
Qodirov Umarali. Yoshlarni salbiy ta’sirlardan himoyalashning ba’zi ijtimoiy-psixologik jihatlari……..…… 13
Po‘latov Ulug‘bek. Maktab direktorlariga menejerlik sertifikati berish tartibini yanada takomillashtirishning zaruriy ahamiyati…….. 19
Омонов Бахтиёр. Генезис модернизации общества и факторы, определяющие эволюционное формирование……... 27
Musayev Mansur. Missionerlikning noan’anaviy ko‘rinishlaridagi ma’naviy-axloqiy tahdidlar va ularning yoshlar faoliyatda namoyon bo‘lishi……. 34
Зайтметов Хусан. Проблема исследования быстрого чтения художественной литературы…… 45
Луфов Мансурбой. Особенности развития профессионально-психологических компетенций будущего педагога…….. 55
Hojiboyev Ilhomjon. Ijtimoiy psixologiyada imijga oid zamonaviy tadqiqotlar tahlili…… 65
Авазов Комил. Духовные аспекты формирования угрозоустойчивого общества…… 71
Саидов Махмуд. Идеологические аспекты формирования устойчивого общества в Узбекистане..... 87
Расулов Х. Генезис и формирование политической и правовой культуры……. 94
Атаджанов Мамиржон. Компоненты и основные формообразующие факторы национального психологического образа…… 102
Qodirov G‘ayrat. Yoshlar orasida giyohvandlikning namoyon bo‘lishi sabablari va uning profilaktikasi…….. 112
Ziyodulloyev Nodirjon. GRASPS o‘quv modeli va u bo‘yicha ishlash vazifalarini yaratish……. 118
Nishonov Islomjon. Shaxs psixologik xavfsizligini tashkillashtirish usullari……..... 124
Yaxyayev Dilmurod. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarinibg kasbiy kompetentligini oshirishning samarali usullari……..... 132
Muhiddinova Nozima. Maktabgacha ta’limda bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy usullari……... 137
Jurayeva Aziza, Xammedova Shahlo. Maktabgacha ta’lim samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati……..... 143

UDK:159.9.072.433



Shoumarov G‘ayrat Bahromovich,
Profi universiteti rektori,
psixologiya fanlari doktori, akademik

MAMLAKATIMIZDA AYOLLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK HAMDA HUQUQIY TAMOYILLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ayollar huquqlari kafolatlari bo‘yicha O‘zbekiston tajribasi qiyosiy tahlil qilingan. O‘zbekiston Kontitutsiyasida va bir qator qonun hujjatlarida ayollar huquqlari himoyasining davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligi masalalariga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: huquq, konvensiya, gender tenglik, huquqiy tamoyillar, ratifikatsiya, ayollar mavqei.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И ПРАВОВЫЕ ПРИНЦИПЫ ПОДДЕРЖКИ ЖЕНЩИН В НАШЕЙ СТРАНЕ

Аннотация. В данной статье представлен сравнительный анализ опыта Узбекистана в обеспечении прав женщин. В Конституции Узбекистана и ряде правовых документов защита прав женщин возведена на уровень государственной политики.

Ключевые слова: закон, конвенция, гендерное равенство, правовые принципы, ратификация, статус женщин.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL AND LEGAL PRINCIPLES OF SUPPORTING WOMEN IN OUR COUNTRY

Annotation. This article presents a comparative analysis of Uzbekistan’s experience in ensuring women’s rights. In the Constitution of Uzbekistan and a

number of legal documents, the protection of women's rights is elevated to the level of state policy.

Key words: law, convention, gender equality, legal principles, ratification, status of women.

Taraqqiy etgan davlatlarning qay biriga qaramaylik, ularda ayollar manfaatlari, huquq va erkinliklari, jamiyatdagi tenglik tamoyillariga alohida e'tibor berilishini ko'ramiz. Buni biz ta'lim, ijtimoiy himoya, sog'liqni saqlash tizimlari va o'sha davlatlarda chiqarilayotgan qonunlar misolida tahlil qilishimiz mumkin. Albatta, davlatning kelajagi uchun ayollar va bolalarning sog'ligi, jamiyatda o'z o'rnini topib borishi juda muhim. Zero, ta'lim-tarbiya sohasiga yetarli e'tibor qaratilmagan, bolalar va ayollarga nisbatan zo'ravonlik, tahqirlash, ularning shaxs sifatida shakllanishi, o'z imkoniyat va qobiliyatlarini namoyon etishlariga to'sqinlik qilib kelayotgan har qanday davlatda taraqqiyotdan ortda qolish, adolatsiz jamiyatda yashayotgan insonlarda esa umidsizlik va tushkun kayfiyatni ko'ramiz.

Shaxs jamiyatda o'z o'rnini topishi, kelajakda raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishi, albatta, uning ruhiy holati bilan ham bog'liq. Jismoniy jihatdan ojiz sanalgan ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlari jamiyatimizda uchrab turishi esa hech birimizga sir emas. Adolatsizlik, zo'ravonlik va turli tazyiqlarga uchragan insonda o'ziga va kelajagiga bo'lgan ishonchning yo'qolishi, tushkunlik hamda hayotga bo'lgan qiziqishlarining sustlashishi kabi holatlarni ko'ramiz. Bu borada ayollarga nisabatan ishlatiladigan oilaviy zo'ravonliklar, xotin-qizlarning ta'lim olishi, davlat tashkilotlarida ishlashi yoki tadbirkorlik bilan shug'ullanishida turli tazyiqlar mavjudligi nafaqat ularning, balki davlat va jamiyat kelajagi uchun ham xavf tug'dirmoqda.

Afsuski, O'zbekiston ham bundan mustasno emas. Bizning mamlakatimizda maishiy yoki "oilaviy zo'ravonlik"ga ko'pincha bir oila muammosi sifatida qaralgan. Odamlar bunday muammolarni uydan tashqariga olib chiqmaslikka harakat qilishadi. Aksariyat holatlarda zo'ravonlik qurboni sharmandalik va turli gap-so'zlardan qo'rqib, jim yurishga majbur bo'ladi. Bunday vaziyatda qolgan ayollarning indamasligiga bir necha sabab bo'ladi. Kimlardir moliyaviy yordamsiz qolishdan qo'rqsa, boshqalari farzandlari va o'z hayoti uchun xavfsiraydi. Ayniqsa, hatto eng yaqin insonlari ham bu muammoni hal qilishdan o'zini olib qochganda zo'ravonlik qurboni bo'lgan ayol har tomonlama qiyin holatda qoladi. Oxir-oqibat bu doimiy qo'rquv, depressiya, o'z joniga qasd qilish kabi hodisalar bilan tugaydi.

Bugungi kunda ayollarga ishlatilayotgan zo'ravonlik va adolatsizlikning oldini olish maqsadida yurtimizda bir qator amaliy ishlar bajarilmoqda, xususan, jamiyatni demokratlashtirish davrida xotin-qizlarga bo'lgan munosabat hamda ularning hayotiy tajribasi, intellektual salohiyati va imkoniyatlaridan bunyod etilayotgan jamiyat rivoji uchun foydalanish davlatchilik asoslarining liberalligi va ilg'orligidan dalolat beradi.

Bugun respublikamizda ayolga, oilaga hurmat davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, qonunchilik normasining asosiy qoidalari sifatida e’tirof etilyapti. Ushbu normalarda ayolning jamiyatda va oilada tutgan o‘rni, huquq va majburiyatlari sharqona turmush tarzi, oila hayotining ma’naviy, axloqiy, iqtisodiy va huquqiy normalarini inobatga olgan holda belgilab berilgan. O‘zbekistonda sog‘lom avlodni tarbiyalash, oilani mustahkamlash, ayollarni e’zozlash, onalik va bolalikni muhofaza etishdek insoniy burchlarni ado etish borasida bir qator amaliy dasturlar ishlab chiqilmoqda va hayotga tatbiq etilmoqda.

Zamonning ayolga munosabati masalasida O‘zbekiston tajribasini tahlil qiladigan bo‘lsak, so‘nggi yillarda bu yo‘nalishda aniq, rejalashtirilgan davlat siyosati yuritilayotgani natijasida salmoqli o‘zgarishlar amalga oshirilayotganining shohidi bo‘lamiz. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”[1]gi Qarori hamda 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar Davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi, 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va yana ko‘plab normativ hujjatlar orqali mamlakatimizda ayollar masalalari bilan bog‘liq ijobiy islohotlar yangi bosqichda takomillashtirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5116-son Qaroriga asosan, Zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o‘z joniga qasd qilishning oldini olish respublika markazi negizida Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzurida Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi va uning hududiy bo‘limlari tashkil etildi.

Markazlarning asosiy vazifalari tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan, o‘z joniga suiqasd qilgan yoki o‘z joniga qasd qilishga moyilligi bo‘lgan xotin-qizlarga anonim tarzda shoshilinch tibbiy, psixologik, ijtimoiy, pedagogik, huquqiy va boshqa yordam ko‘rsatish, og‘ir ijtimoiy ahvolda qolgan, shu jumladan oilaviy muammolar va turmushida zo‘rlik ishlatilishiga duch kelgan xotin-qizlar huquqlarining kafolatlarini ta’minlashga ko‘maklashish va boshqa ko‘plab maqsadlarni o‘z ichiga oladi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog‘ligini kasbga

[1] Mirziyoyev Sh. Islom hamkorlik tashkiloti tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasida “Tinchlik, ma’rifat va bunyodkorlik yo‘lida hamkorlik” mavzusidagi nutqi. Xalq so‘zi, 2016, 19-oktabr.

o‘qitish va bandligini ta’minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, gender tenglikni ta’minlash borasida olib borilayotgan islohotlar tizimli davom ettirilmoqda.

Umuman olganda, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida, birinchidan, O‘zbekiston sharoitida ayollar tafakkurida tolerant tafakkurni shakllantirish, mafkuraviy uyg‘oqlik va sezgirlikni ular ongiga singdirish fuqarolik jamiyatining asoslarini kuchaytirish omillaridan biridir. Nima uchun ayol bag‘rikeng, tafakkuri uyg‘oq, mushohadali, siyosiy jihatdan ongli bo‘lishi lozim? Chunki ayol farzand tarbiyasiga mas’ul shaxs bo‘lib, farzandning tafakkuri shakllanishiga xizmat qiladi. Ana shu tafakkurning to‘g‘ri tanlanishi davlat taraqqiyotiga ta’sir qiladi. Shu bois, bugungi kunda ayol tafakkuri va dunyoqarashi keng, chuqur bilimli bo‘lmog‘i davr talabidir.

Ikkinchidan, bugungi kunda O‘zbekistonda ayollarning intellektual salohiyati anchagina yuqori bo‘lib, ana shu intellektual boylikdan jamiyat taraqqiyotida samarali foydalanish hamda ayollarni islohotlar, yangi jamiyatning yangilanish jarayonlariga safarbar etish muhim vazifadir.

Har qanday davlat huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishni maqsad qilib qo‘yar ekan, eng avvalo Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga tayanadi. Konstitutsiya bashariyat hayotida ilk bor insonning ozod va erkin yashash, mulkka ega bo‘lish, ta’lim olish, mehnat qilish, saylash va saylanish kabi huquqlarini, so‘z hamda e’tiqod erkinliklarini oliy qadriyat darajasiga ko‘tardi. Mustaqilligimizning ilk davrida qabul qilingan Konstitutsiyamiz shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlarda o‘zaro huquq va majburiyatlar hamda ularning kafolatlarini aniq-ravshan belgilab berdi.

Bosh qomusimiz, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, yurtimiz fuqarolari tengligining kafolatlanishini e’tirof etdi va zamonaviy demokratik taraqqiyot uchun zamin yaratdi.

Aynan shu sababli Konstitutsiyamizni ehtirom bilan ulug‘lashimiz, har tomonlama o‘rganishimiz, unga izchil amal qilishimiz, Asosiy qonunimizda mujassam bo‘lgan ajdodlarimizning buyuk merosi va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarimiz qalbiga singdirishimiz zarur.

Sohibqiron Amir Temur bobomiz “Davlat qonunlar asosida qurilmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tarkibi yo‘qoladi”, deb ta’kidlagan edilar. Shu nuqtai nazardan, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash biz bunyod etayotgan demokratik huquqiy davlatning bosh mezoni hisoblanadi. Har qanday demokratik islohotlar samarasi, tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi ham Konstitutsiya va qonun ustuvorligi ta’minlanishi bilan bevosita bog‘liq.

Konstitutsiyamiz har bir fuqaroning ongi va qalbidan chuqur joy olgan, ularning huquq va erkinliklarini to‘liq kafolatlaydigan haqiqiy hayot qomusiga aylanmog‘i lozim.

O‘zbekiston Respublikasi, mamlakat ichkarisida yoki tashqarisida bo‘lishidan qat’i nazar, o‘z fuqarolarini huquqiy himoya qilish, ularga homiylik ko‘rsatishni bundan buyon ham kafolatlaydi va barcha choralarni ko‘radi.

Uchinchidan, xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasida huquqiy tenglikni mustahkamlashga mamlakatimizda jiddiy e’tibor berilmoqda. Xotin-qizlar qo‘mitasi va uning hududiy bo‘limlari butunlay yangitdan tashkil etilgani, ularga qo‘shimcha vakolat va imkoniyatlar berilib, to‘laqonli faoliyat yuritishi uchun zarur sharoitlar yaratilgani bu yo‘lda yangi qadam bo‘ldi.

Hech shubhasiz, ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni o‘z vaqtida hal etishda, boshqaruv samarasini oshirishda opa-singillarimizning o‘rni va ta’siri juda katta. Shuning uchun biz xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeini oshirish, ularga turli mas’ul vazifalarni ishonib topshirishga qaratilgan siyosatni yanada faol davom ettiramiz.

2020-yildan bu jabhada mutlaqo yangi tizimlar ish boshladi. “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” tizimi joriy etildi, 527 ming fuqaroning bandligi ta’minlandi. Bog‘chalar soni 14 mingdan oshdi, yangi maktablar qurildi, yangi oliy ta’lim muassasalari ochildi. Ehtiyojmand oilalarning mingga yaqin qizlari ilk bor oliy o‘quv yurtlariga alohida kvota asosida qabul qilindi.

Joylarda Prezident va ijod maktablari faoliyat boshladi. Ularda tahsil olayotgan iqtidorli yigit-qizlarimiz bugun dunyoga o‘z so‘zini aytmoqda.

Bosh Qomusimiz muqaddimasida O‘zbekiston xalqi nomidan o‘zining muxtor vakillari siymosida fuqarolarning munosib hayot kechirishlarini ta’minlashga alohida urg‘u berilgan.

Prezidentimizning Murojaatnomasida uzoq yillardan buyon yopiq mavzu bo‘lib kelgan kambag‘allikni qisqartirish muammosini hal etish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab olingan edi. Bu muammo pandemiya sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etgani sir emas. Boisi, pandemiya davrida ayrim oilalar daromad manbaini yo‘qotdi. Karantin cheklovlari ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning birlamchi ehtiyojlarini qondirish masalasini ko‘ndalang qilib qo‘ydi. Ish o‘rinlarining vaqtinchalik qisqartirilishi boshqa bir qator davlatlarda bo‘lgani kabi mamlakatimizda ham birmuncha qiynalib yashab kelayotgan ijtimoiy ko‘makka muhtoj aholining turmush darajasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismini qo‘llab-quvvatlash borasida uyma-uy yurib aholi muammolarini o‘rganish tizimi yo‘lga qo‘yilishi natijasida 2,5 milliondan ziyod a’zosi bo‘lgan 590 mingdan ortiq oilani qo‘llab-quvvatlash uchun 840 milliard so‘m mablag‘ ajratildi. Bu borada, yangi tizimning asosiy maqsadi har bir insonning asosiy huquq va erkinliklarini, salomatligi va farovonligini ta’minlaydigan mexanizm, ta’bir joiz bo‘lsa, jamiyatning birorta a’zosini e’tiborsiz qoldirmaslikka qaratilgan. Davlatimiz rahbarining 2020-yil 13-oktabrdagi “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori kambag‘allikni qisqartirish va tadbirkorlikni rivojlantirish, fuqarolarning ertaga

emas, bugun hayotdan rozi bo‘lib yashashida navbatdagi muhim qadam bo‘ldi. Unga muvofiq, 2020-yil 15-noyabrdan boshlab yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning tartibi amalga kiritiladi. Bir so‘z bilan aytganda, yangi O‘zbekistonda inson va uning manfaatlari oliy qadriyat tamoyili asosida amalga oshirilayotgan islohotlar Asosiy qonunimiz bilan belgilab berilgan shaxs — jamiyat — davlatga oid normalarga hayotiy kuch bag‘ishlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. O‘zbekiston. 2018.
2. Mirziyoyev Sh. Islom hamkorlik tashkiloti tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasida “Tinchlik, ma’rifat va bunyodkorlik yo‘lida hamkorlik” mavzusidagi sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi/ /Xalq so‘zi, 2016, 19-oktabr.
3. Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi//Xalq so‘zi, 2016-yil 8-dekabr.
4. Mirziyoyev Sh. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. T.: O‘zbekiston. 2017.
5. Mirziyoyev Sh. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. “Yangi O‘zbekiston”, 2019-yil 8-dekabr.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2008-yil 7-yanvar.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022-yil 7-mart.
8. Xurvaliyeva T. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishiga oid nazariyalar. “Zamonaviy ta’lim” jurnali. 2019-yil 7-son.
9. Zo‘ravonlikdan jabrlanganlar huquqlarini himoya qilish va zo‘ravonlikning oldini olish. Uslubiy qo‘llanma. Baktria press, Toshkent — 2020.



UDK: 159.9.075



Qodirov Umarali Do‘stqobilovich,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi direktori, psixologiya fanlari doktori, professor

YOSHLARNI SALBIY TA’SIRLARDAN HIMOYALASHNING BA’ZI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etayotgan yoshlarni destruktiv g‘oyalar ta’siridan himoyalash, ularda mafkuraviy, g‘oyaviy immunitetni tarkib toptirish, bu borada ta’lim tizimi mutaxassislari oldida turgan vazifalar singari masalalar xususida fikr yuritilgan, muayyan tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: profilaktika, ekstremizm, terrorizm, motiv, destruksiya, subyekt, ta’lim, tarbiya, tanqidiy tafakkur, pedagog.

НЕКОТОРЫЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАЩИТЫ МОЛОДЕЖИ ОТ НЕГАТИВНЫХ ВОЗДЕЙСТВИЙ

Аннотация. В данной статье даны защита молодежи от влияния деструктивных идей, создание у нее идейно-идеологического иммунитета, задачи, стоящие перед специалистами системы образования в этой связи, и конкретные рекомендации.

Ключевые слова: профилактика, экстремизм, терроризм, мотив, разрушение, субъект, образование, воспитание, критическое мышление, педагог.

SOME SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PROTECTING YOUTH FROM NEGATIVE INFLUENCES

Annotation. This article provides the protection of young people from the influence of destructive ideas, the creation of their ideological immunity, the tasks facing education system specialists in this regard, and specific recommendations.

Key words: prevention, extremism, terrorism, motive, destruction, subject, education, upbringing, critical thinking, teacher.

Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi.
Sh.M.Mirziyoyev

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarning ijtimoiy-psixologik holatini yaxshilash va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash ishlari keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Shu sababli, yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash milliy ta'lim-tarbiya asosida tashkil etilib, davlat siyosati darajasidagi asosiy masalalardan biri sifatida alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Yoshlarni ijtimoiy-psixologik tomondan qo'llab-quvvatlash yo'nalishida bir qator ishlar amalga oshirib kelinayotganligiga qaramasdan, hozirda yoshlar tarbiyasiga bir qancha salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning kuchayib borayotganligi, mazkur yo'nalishda dastlab vaziyatga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishni talab qilmoqda. Mamlakatimizda soha mutaxassislari tomonidan o'tkazilayotgan ijtimoiy tadqiqotlar hamda OAV orqali e'lon qilinayotgan ma'lumotlarga qaraganda, Internet – hozirgi kunda yoshlar psixologiyasida destruktiv g'oyalar shakllanishining eng asosiy omillaridan biri ekan.

Axborot tahdidi xususida gap ketganda uning universalligi, boshqa sohalarga jiddiy salbiy ta'sir qilishini ta'kidlash lozim. Salbiy jihatlar natijasi shaxs dunyoqarashi, jamiyat barqarorligi, davlat tinchligi, jamoatchilik fikrini chalg'itish va oxir-oqibatda har bir mamlakatning ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy yuksalishiga bo'lgan tahdidlarda ko'rinadi. Chunki turli ma'lumotlar, axborotning jamiyat, tashkilot, oila, shaxs ongiga kirib borishi jarayoni uncha ham bilinmaydi. Ijobiy va salbiy axborotni farqlash, yaxshi ma'lumotni o'zlashtirish va zararlisini rad etish uchun inson ongi rivojlangan, uning o'zida esa mustahkam iroda, axborot iste'moli madaniyati, mafkuraviy immunitet, oqni qoradan, yaxshini yomondan ajrata olish qobiliyati rivojlangan bo'lishi zarur. Mamlakat aholisining barchasi bunday imkoniyatga ega, deyish qiyin. Shuning uchun axboriy-psixologik barqarorlikni birinchi o'rinda davlat tuzilmalari xizmatchilari, jurnalistlar, pedagoglar, jamoat tashkilotlari xodimlari va bir so'z bilan aytganda ma'rifatparvar insonlar ta'minlashlari kerak.

Destruktiv g'oyalarni yoshlar ongiga targ'ib qilish usullari xilma-xil bo'lib, ularda doim ham mavjud tuzumga qarshi ochiqdan-ochiq harakat qilish unsurlari ifodalanmasligi mumkin. Xususan, terrorizmning oxirgi yillarda turli ko'rinishlari vujudga keldi va Internetda e'lon qilinayotgan ushbu mazmundagi materiallar odatlanilgan, shakliy mezonlarga javob bermasligi ehtimoli mavjud. Masalan, aholi ongiga ta'sir ko'rsatish uchun jamiyatda mavjud turli muammolarga irqiy, diniy,

milliy tus beriladi va ularni bartaraf etishda radikal xattiharakatlarga e'tibor qaratish lozimligiga urg'u beriladi. Yoki destruktiv g'oyalarni targ'ib qilishning nisbatan payqash mumkin bo'lgan shakli mazkur harakatlarni oqlash, ularni legitimlashtirishga urinish hisoblanadi.

Shu o'rinda terrorchi shaxsini yaxshiroq tushunish uchun terrorchi qanday maqsadlarda terrorchilik harakatlarini amalga oshirishini, uning ichki motivatsiyasini anglash zaruriyati yuzaga keladi.

Adabiyotlarda yozilishicha, hech bo'lmasa bir marta terrorchilik harakatlarida ishtirok etgan kishilar xatti-harakatlari, subyektiv motivlari tahlili quyidagi asosiy motivlarni tasniflashga imkon beradi:

- olamni o'zgartirishga faol kirishish motivi. Bu motiv terrorchi tomonidan dunyoning nomukammalligi va adolatsizligini idrok etib, shu kamchilikni "tuzatish" yo'lidagi jadal xatti-harakati bilan bog'liqdir.

- mafkuraviy motivlar. Bular anchagina barqaror va insonning shaxsiy qadriyatlariga mos keluvchi, uning muayyan guruh, tashkilot, siyosiy partiya, uyushma g'oyalari, mafkurasiga sadoqatli ekanligini ta'kidlovchi, ko'rsatuvchi motivlardir.

- foydani ko'zlash, manfaatparastlik motivi. Terror ham inson faoliyatining boshqa ko'rinishlari singari faoliyat uchun haq to'lashni taqozo etadi. Shunga muvofiq muayyan guruh insonlari uchun terror – pul topishning bir vositasidir. Hozirgi kunda masalan, IShID safida jang qilayotgan askarlarning aksariyati pul uchun yollangan shaxslar, yoshlardir.

- insonlar ustidan hukmronlik qilish motivi. Zo'ravonlik, tajovuz terrorchining o'z "Men"ini tasdiqlash, ifodalash uchun xizmat qiladi.

- hamfikrlari, do'stlari, ota-ona, qarindosh-urug', aka-ukalariga yetkazilgan zarar uchun qasd olish motivi (bu o'rinda hamjihatlik nuqtayi nazaridan terror jarayoniga qo'shilishadi, chunki inson uchun qadrli, yaqin bo'lgan kishilardan biri terrorchi bo'lgan).

- faoliyat turi sifatida terrorning qiziqligi, o'ziga jalb qilishi motivi. Muayyan guruh vakillari xususan, o'ziga to'q va ma'lumotli kishilar uchun ba'zan terror faoliyatning yangi, sinab ko'rilmagan va g'aroyib shakli tarzida zohir bo'ladi. Bunday kishilarni terror bilan bog'liq tavakkalchilik, rejalarni ishlab chiqish, tayyorgarlik va rejani amalga oshirish kabi jihatlar birlashtiradi.

- o'zini namoyon qilish motivi. Bu paradoksal motiv bo'lib, bir tomondan, ruhan kuchli, irodali shaxslarning o'z jonidan voz kechib bo'lsa-da, terrorga hayotini bag'ishlashini bildiradi. Ikkinchi tomondan, bunday shakldagi o'zini namoyon qilish insonning faoliyat yuritish uchun zo'ravonlik va buzg'unchilikdan boshqa ish qo'lidan kelmasligi hamda imkoniyatlari cheklanganligidan darak beradi. Aniqroq aytganda, terror – shaxsning bu dunyoda o'z noshudligini tan olganligini bildiruvchi bir belgi.

Terrorchi xatti-harakatlari odatda yorqin asotsial, og'ish xususiyatlariga ega xulq-atvorni namoyon qiladi. O'z xohishlari, istaklarini qondirish yo'lida bunday

insonlar zo‘r berib tirishadilar, biroq ijtimoiy burchlarini ado etishga kelganda vazifa va mas’uliyatni boshqalar zimmasiga ag‘darishga harakat qiladilar. Ularda risoladagi insonlarga xos mushohada va o‘zini nazorat qilish xususiyatlari ko‘zga tashlanmaydi, shu bilan birga ko‘pincha, narkotik va me’yoridan ortiq alkogol iste’mol qilish, aysh-ishratga intilish, surbetlik, yon-atrofdagilarga xiralik qilish doimiy yumushlari bo‘ladi.

Katta hayotga endi qadam qo‘yayotgan avlod vakillariga psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash qator jihatlarga ko‘ra dolzarbdir. Avvalo, yoshlar jamiyatimizning kelajagini belgilab beruvchi muhim demografik qatlam hisoblanadi. Yoshlar shaxsini rivojlantirish esa axloqiy me’yorlar, qadriyatlar tizimiga ta’sir ko‘rsatishi muqarrar bo‘lgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy holat vaziyatida tobora murakkablashib bormoqda. Chunki, yoshlarning asosiy hayotiy rejalari ularning qadriyatlariga bog‘liq ravishda shakllantiriladi.

Yoshlar jamiyatning turli destruktiv, tajovuzkor g‘oyalarni qabul qilish va o‘z faoliyatlarida qo‘llashga moyil demografik qatlamidir. Mazkur kategoriyaga mansub shaxslarda hissiy ta’sirlanish, xavotir, axloqiy va hayotiy qadriyatlarni aniqlashtirish singari muayyan psixologik xususiyatlar alohida ko‘zga tashlanadi. Ushbu xususiyatlar qaror qabul qilishdagi ochiqlik, qat’iylik singari jihatlar bilan uyg‘unlashib ketadi.

Yoshlar psixologiyasining o‘ziga xosligi, qadriyatlarning aniq yo‘nalgan tizimi hali to‘liq shakllanmaganligi nafaqat ta’lim-tarbiya sohasida ish olib boruvchi mutaxassislar, pedagoglar, balki ota-onalar, jamoatchilik, oila, mahalla hamkorligini taqozo qiladi.

Ayni paytda idrok qilingan ma’lumotni tahlil, mushohada, tafakkur qilish, rost, ishonchli axborotni yolg‘on, ishonchsiz ma’lumotdan ajrata bilish, tanqidiy qayta ishlash insonning aqliy, ongli faoliyati mazmunini tashkil etadi.

Destruktiv targ‘ibot-tashviqotning o‘zgacha ko‘rinishlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- muayyan irq, din, millat vakillariga, ijtimoiy guruhga nisbatan salbiy qarashlarni, adovat tuyg‘usini shakllantirish;
- muayyan destruktiv xatti-harakatlarga nisbatan xayrixohlikni tarkib toptirish (ularga masalan, suitsidni targ‘ib qiluvchi yoki ekstremistik harakatlarni qo‘llab-quvvatlovchi saytlar faoliyati misol bo‘la oladi).

Psixologiyada hayotning turli shart-sharoitlarida ma’lum bir ahamiyat kasb etadigan tafakkur shakllari ajratiladi. Destruktiv mazmunga ega targ‘ibot-tashviqot turlariga nisbatan qarshi turish va ularning profilaktikasi uchun yoshlarda tanqidiy tafakkurni shakllantirishga e’tibor qaratish lozim. Tanqidiy tafakkur qabul qilinayotgan axborotni tahlil qilish va baholashda namoyon bo‘ladi. Tafakkurning bu shakli eng avvalo, insonning kamchilik va xatolarini, zaif tomonlarini ko‘rish, tushunish qobiliyatida ifodalanadi. Ayni paytda baholash faoliyati, nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham tanqid va tahlil qilish imkoniyati insonni ruhlantiradi,

unga kuch beradi, ijobiy mazmundagi his-tuyg‘ularni uyg‘otadi, zero odamga atrof-olamni anglash, hodisalar, ularning sabab va oqibatlari xususida fikr yuritish xosdir.

Bugungi kunda yaxshi ma’lumki, faqat kuch ishlatish yo‘li bilan terrorizmni bartaraf etib bo‘lmaydi. Ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamol shaxsni tarbiyalashga yo‘naltirilgan faoliyatgina terrorizm profilaktikasini amalga oshirishda eng samarali natija berishi mumkin.

Jamiyatning psixologik holati tahlili turli ijtimoiy, etnik guruhlardagi hissiy-psixik yo‘nalganlik (ijtimoiy-psixologik iqlim, muhit) fuqarolarning hayot, o‘tmishi va kelajagiga munosabat xarakteriga, ijtimoiy-siyosiy voqelikni idrok etishiga, xulq-atvor xususiyatlarining tarkib topishiga katta ta’sir ko‘rsatishini isbotlaydi.

Ijtimoiy-psixologik, pedagogik jihatdan jamiyat uchun foyda keltiradigan fuqarolar, yosh avlodni tarbiyalashda korreksion-trening mashg‘ulotlarini olib borish maqsadga muvofiqdir. Bunda amaliyotchi psixologlar trening mashg‘ulotlari davomida muayyan psixologik usullardan foydalanishlari tavsiya etiladi. Bu kabi mashg‘ulotlarda qatnashgan ishtirokchilar olgan bilim va malakalarini yoshlarni destruktiv g‘oyalar, guruhlar ta’siridan himoyalashga yo‘naltirilgan profilaktika tadbirlarida qo‘llashlari mumkin.

Hozirgi zamon ota-onalarning farzandlarida fuqarolik ongi, pozitsiyasi, yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar shakllanilishiga nisbatan beparvoligi o‘ta og‘ir oqibatlarga olib keladi. Ma’lumki, tabiat, yashash uchun kurash qonunlariga ko‘ra eng kuchli jonzotlar yashab qoladi. Majoziy ma’noda aytganda, hozirgi vaqtdagi globallashuv sharoitida ham psixologik, mafkuraviy, g‘oyaviy jihatdan kuchli fuqarolarga ega davlatlar jahonda o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘ladi. Zero, jahonning turli davlatlarida bo‘lib o‘tayotgan noxush hodisalar, terrorchilik aktlari mazkur vaziyatlar, destruktiv holatlar, faoliyat barcha uchun kun tartibidagi eng dolzarb masalalardan biriga aylanganligini ko‘rsatmoqda. Ya’ni, hech kim destruktiv g‘oyalar, destruktiv faoliyat oqibatlaridan to‘liq himoyalanmagan. Shuning uchun ogohlik, sergaklik davr talabidir. Jamiyat oilalardan tashkil topgan ekan, har bir oilada voyaga yetayotgan farzandning, yoshlarning qanday tarbiyalanishi kelajakda mamlakatning istiqbolini belgilovchi muhim omil ekanligini hech birimiz yoddan chiqarmasligimiz zarur.

Ta’lim oluvchilar ota-onalari va pedagoglarning birgalikdagi o‘zaro munosabati modelini yaratish ta’lim muassasasi va oilaning bir-biriga ko‘rsatadigan ta’sirini muvofiqlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik-pedagogik mazmundagi barcha ishlar zamirida davlat, jamiyat, tashkilot va muassasalarning o‘zaro hamkorligi darajasida amalga oshiriladigan vazifalar aks etishi va ular tizimli yondashuv asosida tahlil qilingan bo‘lishi lozim.

Psixologik-pedagogik ta’sir quyidagi yo‘nalishlar asosida olib borilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

-ijtimoiy takomil va mas'uliyat hissi me'yorini belgilaydigan ma'naviy ta'limni maqsadga muvofiq amalga oshirish, tafakkur madaniyatini shakllantirish;

- yoshlar ham ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan jamiyatning turli sohalaridagi barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlovchi hayot tarzini shakllantirishga yo'naltirilgan qadriyatlar ustanovkalari (yo'l-yo'riqlari)ni aniqlashtirish, umumlashtirish;

- yoshlarda kasbiy, ongli va ijtimoiy faoliyati strategiyasini, kelajak, istiqboldagi hayotiy pozitsiyasini shakllantirishga yordam beradigan qadriyatlar tizimini tarkib toptirish.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonuni. [Elektron resurs]: https://lex.uz/docs/-3026246.

2. Kadyrov U.D., Kadyrov G.U. Drug addiction as a social-psychological problem // Science and innovation international scientific journal, 2024. – Volume 3. – PP. 80-83.

3. Ольшанский Д.В. Психология терроризма. –СПб: Питер, 2002.

4. Қодиров У. Ёшларни деструктив таъсирлардан ҳимоялашнинг психологик. жиҳатлари. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2013.

5. Норқулов Ҳ.Д. Ота-оналарнинг ғоявий-тарбиявий билимларини оширишнинг ижтимоий-педагогик асослари: Педагогика фанлари номзоди ... дис. – Тошкент, 2007.

6. Qodirov U. Psixologik xizmat – zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas tarkibiy qismi // Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 2023. – № 1(1). – С. 21–24.

7. Qodirov U.D. Yoshlarni destruktiv ta'sirlardan himoyalashning psixologik jihatlari. Toshkent, ―Fan va texnologiyalar‖, 2013.

8. Qodirov G'.U. Giyohvandlik muammosining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Toshkent, ―Fan va ta'lim yangiliklari‖, 2013. 1-son.



UDK: 37.075



Po‘latov Ulug‘bek Shavkat o‘g‘li,
Profi University pedagogik masalalar bo‘yicha maslahatchisi

MAKTAB DIREKTORLARIGA MENEJERLIK SERTIFIKATI BERISH TARTIBINI YANADA TAKOMILLASHTIRISHNING ZARURIY AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktab direktorlariga menejerlik sertifikati talabini joriy etishning yutuq va kamchiliklari tahlil qilinadi. Shuningdek, menejerlik sertifikatini joriy qilish amaliyotining samaradorligini oshirish uchun taklif va tavsiyalar beriladi. Bu tavsiyalar qatorida menejerlik kurslarini amaliyot bilan boyitish, ko‘p bosqichli baholash tizimini joriy qilish va nomzodlarning individual qobiliyatlarini hisobga olish kabilar keltiriladi.*

Kalit so‘zlar: *menejerlik sertifikati, maktab direktorlari, direktorlikka nomzodlar, menejment, o‘quv kursi, samaradorlik.*

НЕОБХОДИМАЯ ВАЖНОСТЬ ДАЛЬНЕЙШЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПОРЯДКА ВЫДАЧИ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ УДОСТОВЕРЕНИЙ ДИРЕКТОРАМ ШКОЛ

Аннотация. *В данной статье анализируются преимущества и недостатки введения требований по управленческой сертификации для директоров школ. Также даются предложения и рекомендации по повышению эффективности практики внедрения сертификата управления. Эти рекомендации включают в себя обогащение курсов по менеджменту практикой, введение многоуровневой системы оценки, учет индивидуальных способностей кандидатов.*

Ключевые слова*: управленческий сертификат, директора школ, кандидаты на должность директора, менеджмент, курс обучения, эффективность.*

THE NECESSARY IMPORTANCE OF FURTHER IMPROVEMENT OF THE PROCEDURE FOR ISSUING MANAGEMENT CERTIFICATES TO SCHOOL PRINCIPALS

***Abstract**: This article analyzes the advantages and disadvantages of introducing management certification requirements for school principals. Also, suggestions and recommendations are given to increase the effectiveness of the practice of introducing the management certificate. These recommendations include enriching management courses with practice, introducing a multi-level evaluation system, and taking into account the individual abilities of candidates.*

***Key words**: management certificate, school principals, principal candidates, management, training course, efficiency.*

Maktab direktorlarida menejerlik ko‘nikmalarini shakllantirish ta’lim tizimining samaradorligi va sifatini oshirish uchun muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Chunki, ta’limni boshqarish alohida soha bo‘lib, bunda faqatgina pedagogik bilimlarga ega bo‘lishning o‘zi kamlik qiladi. Shu sababli, bugungi kunda maktab direktorlarining zamonaviy menejerlik ko‘nikmalarini egallashi ham muhimdir.

O‘zbekistonda hozirgi kunga qadar maktab direktori lavozimiga asosan liderlik ko‘nikmalariga ega bo‘lgan pedagog xodimlar orasidan tayinlangan. Bu amaliyotning asosiy maqsadi ta’lim muassasalarini yetakchi pedagoglar tomonidan boshqarilishini ta’minlashdan iborat edi. Bunday yondashuv ham ko‘plab ijobiy natijalarni bergan bo‘lishi mumkin, biroq uning ayrim kamchilik va salbiy oqibatlari ham yo‘q emas. Pedagoglar, odatda, ta’lim jarayonini samarali tashkil eta olishadi, ammo moliyaviy boshqaruv, strategik rejalashtirish va inson resurslarini boshqarish kabi menejerlik ko‘nikmalariga ega bo‘lmasliklari mumkin. Bu esa, ta’lim muassasasining samaradorlik ko‘rsatgichini pasaytirishi mumkin. Boshqaruv ko‘nikmalari yetarlicha rivojlanmagan direktorlar xodimlarni boshqarishda muammolarga duch kelishlari mumkin. Bu esa, o‘qituvchilarning ish samaradorligini pasaytirishi va umumiy ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. To‘g‘ri, boshqaruv jarayonida pedagogik qobiliyat ham muhim ahamiyatga ega. Chunki, pedagogik qobiliyat rahbarning pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug‘ullana olishini, shuningdek,

Ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda maktab direktorlarining menejerlik ko‘nikmalariga ega bo‘lishlariga alohida urg‘u qaratiladi. Bunga ta’lim sifatini oshirish, ta’lim muassasalarining boshqaruv samaradorligini ta’minlash va

o‘quvchilarning muvaffaqiyatli ta’lim olishlarini qo‘llab-quvvatlash vositasi sifastida qaraladi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida maktab direktorlarining faoliyati va samaradorligi haqida keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan Paul V. Bredesonning tadqiqot doirasida o‘tkazilgan so‘rovnomada maktab direktorlarining 90%i “menejment dasturlari”ni tugatganligi va bu universitetlarda magistratura darajasiga teng ekanligini, ammo shunday bo‘lsada, bundan qoniqmasdan ma’lum davrlarda o‘z sohalari bilan bog‘liq kurslarda qatnashish uchun universitetlarga Albatta, Bredeson tadqiqoti umumiylik kasb etmasada, maktab direktorlari muntazam malaka oshirish kurslarida o‘qishi va/yoki o‘qitilishi muhim o‘ringa ega ekanligi shubhasizdir. Chunki, bunday ko‘nikmalarga ega bo‘lgan rahbarlar kam resurs va kam vaqt sarflab, ko‘proq samaradorlikka erishishlari mumkin. Direktorlarda menejerlik ko‘nikmalarini shakllantirishning eng asosiy maqsadi ham aynan shu bo‘lsa kerak.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoniga asosan maktab direktori lavozimiga nomzodlarning bilim va ko‘nikmalarini baholash hamda baholash natijasi bo‘yicha ularga menejerlik sertifikatini berish amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi belgilandi. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-dekabrdagi 681-son qarori bilan “Davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o‘quv kurslarida o‘qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to‘g‘risida” Nizom ishlab chiqildi. Yangi tartibga muvofiq, amaldagi direktorlar yoki direktorlikka nomzodlar A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida joriy qilingan bir oylik menejerlik o‘quv kurslarida o‘qishi hamda menejerlik sertifikatini olishi belgilandi. Menejerlik o‘quv kurslarining o‘quv reja va dasturlari Angliya, Yaponiya, Finlandiya kabi xorijiy davlatlar tajribasiga tayangan holda 5 ta, jumladan, “Ta’lim muassasasini rivojlantirish va o‘quv-tarbiya jarayonini boshqarish”, “O‘zini-o‘zi rivojlantirish va o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish”, “Inson resurslarini boshqarish”, “Ish yuritish va hisobot”, “Jamoatchilik va ota-onalar bilan munosabat-hamkorlik” modullarini qamrab olgan bo‘lib, unda bugungi zamonaviy rahbarlarga qo‘yiladigan talablar va egallanishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar o‘rin olgan.

Ma’lumki, O‘zbekistondagi oliygohlarida ta’lim muassasalariga menejerlik ko‘nikmalariga ega bo‘lgan bakalavr darajasidagi kadrlarni yetishtirib beruvchi “Ta’lim menejmenti”, “Maktab menejmenti” kabi yo‘nalishlar kamdan-kam uchraydi. Chunki, bu kabi yo‘nalishlarni tamomlagan bitiruvchilar to‘g‘ridan-to‘g‘ri maktablarda rahbarlik lavozimlariga qabul qilinmaydi. Sababli,

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan ta'lim muasssasasi xodimlarining lavozim malaka talablarida rahbarlik lavozimi uchun ta'lim sohasida kamida 5 yillik pedagogik staj, kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot va menejerlik sertifikati talabi qo'yilgan. Shu sababli, "Ta'lim menejmenti", "Maktab menejmenti" yo'nalishini tamomlagan kadrlar ta'lim muassasalarida ishlay olmaydi. Amaldagi maktab direktorlari hamda 5 yillik pedagogik stajga ega bo'lgan, oliy ma'lumotli pedagog kadrlar esa, A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida tashkil etilgan menejerlik kurslarida tahsil olib, ta'lim muassasalarida direktor bo'lib ishlash huquqini qo'lga kiritishi kerak. 144 soatni tashkil etadigan mazkur o'quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan nomzodlar sertifikat berish bo'yicha yakuniy sinovlarga qo'yiladi. Bunda test sinovlari uchun 50 ball, keys topshiriqlari uchun 10 ball va amaliy topshiriqlar uchun 40 ball (jami 100 ball) berilishi belgilangan. Yakuniy sinovlarda 70 ball va undan yuqori natija ko'rsatgan nomzodlar yakuniy sinovni muvaffaqiyatli topshirgan hisoblanadi va ularga sertifikat beriladi.

Belgilangan ballni to'play olmagan nomzodlar bir yil ichida navbatdagi bitta yakuniy sinovlarda to'lov undirilmagan holda ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi. Ikkinchi marta ham yakuniy sinovlarda belgilangan ballni to'play olmagan nomzodlar qayta o'quv kursida o'qiganidan so'ng yakuniy sinovlarda ishtirok etish .

Amaldagi direktorlar esa, yakuniy sinovlarda belgilangan ballni to'play olmagan taqdirda o'rnatilgan tartibda lavozimidan ozod etiladi. Ya'ni, direktorlarga faqat bir marta imkoniyat beriladi xolos. Belgilangan tartibning aynan mana shu qismi esa, bir qancha muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Chunki, masalan, hozirda maktabni samarali boshqarib kelayotgan maktab direktori qandaydir omillar sabab yakuniy sinovdan o'tolmay qolsa, uning shuncha yillik ish faoliyati davomida erishga yutuqlari hisobga olinmaydi va u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinadi.

Bir necha yillardan buyon maktab direktori lavozimida ishlab kelayotgan kadrlar amaliy tajribasiga ega bo'lib, ular real muammolarni hal qilishda ancha faol bo'ladi, ish faoliyati davomida o'z tajribasiga asoslangan boshqaruv usullarini qo'llay oladi. Buni "Zamonaviy maktab"larga qo'yilgan talablar asosida o'tkazilgan tahlil natijalariga asoslanib, amalda menejerlik sertifikatiga ega bo'lmagan, ammo u rahbarlik qilayotgan ta'lim muassasiga "Zamonaviy maktab" maqomi berilgan maktab direktorlari misolida ham ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, 2023-yilda "Zamonaviy maktab"larga qo'yilgan talablar asosida 2244 ta ta'lim muassasi baholanib, ulardan 210 tasi "2-darajali", 914 tasi "3-darajali" "

Shuningdek, har yili Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 345-son qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari reytingini aniqlash tartibi to‘g‘risida"gi nizom asosida ta’lim muassasalari reytingi e’lon qilib kelinadi. Mazkur reyting natijalari orqali ham ayrim maktab direktorlarining faoliyatiga baho berish mumkin. Umuman olganda, ta’lim muassasalari reytingi hamda "Zamonaviy maktab" maqomiga ega bo‘lgan maktablarning umumiy natijalaridan kelib chiqib, tizimda menejerlik sertifikatiga ega bo‘lmagan, ammo salohiyati direktorlar faoliyat yuritib kelayotganini aytishimiz mumkin.

Atigi bir oyni tashkil qiladigan o‘quv kursi, 25 ta test va keyslar, ayniqsa inson omili bilan bog‘liq bo‘lgan amaliy topshiriqlar orqali esa, eng salohiyatli direktorlarni elakdan o‘tkazib, ularning faoliyatiga xolisona baho berolmasligimiz mumkin. Masalan, ayrim maktab direktorlari ota-ona va jamoatchilik hamda maktab kuzatuv kengashi bilan hamkorlik aloqalarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yib, mahalliy hokimlik hal eta olmagan moliyaviy masalalarni ham amaliy tajribasidan kelib chiqqan holda ijobiy hal eta olishi mumkin.

Tabiiyki, bunday vaziyatlarda nazariy bilimlarning o‘zi kamlik qiladi. Boshqa bir vaziyatda esa, u rahbarlik qilayotgan ta’lim muassasasidagi ta’lim sifati ham, o‘quvchilarning oliy ta’limga kirish ko‘rsatgichi ham yaxshi bo‘lishi, har yili maktabning byudjetdan tashqari hisobiga juda katta miqdorda mablag‘ kiritishi, biroq bunday kadrlar ta’lim tizimiga oid qabul qilingan ayrim normativ-huquqiy hujjatlar mazmunini to‘liq bilmasligi, lekin u normativ hujjatlarni varaqlab, ularni amaliyotda qo‘llay olishi ham mumkin.

Davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o‘quv kurslarida o‘qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi bo‘yicha ish ko‘radigan bo‘lsak, ayrim salohiyatli direktorlarni menejerlik kursidagi birgina yakuniy sinov orqali yo‘qotib qo‘yishimiz mumkin. Bunday yondashuv esa, yetuk kadrlarni rahbarlikdan chetlatishi va maktablarda yuqori sifatli boshqaruvni ta’minlash imkoniyatini kamaytirishi mumkin.

ta'sirchan qismi ongga (bilinçaltı) deyarli to'siqsiz o'tadi. Zamonaviy ommaviy axborot vositalaridan foydalanish va rivojlanish yillari davomida shaxsning psixikasi allaqachon mavjudlikning yangi sharoitlariga moslashib, ma'lum bir tarzda taqlid qilingan. Bu shuni anglatadiki, yangi olingan ma'lumotlar shaxsning ruhiyatida o'z aksini topishi osonroq bo'ladi. Ma'lumot vaqt bombasiga o'xshaydi. Ammo ikkinchisidan farqli o'laroq, axborot bombasi aniq ishlaydi. Chunki shaxsning ong ostiga qo'yilgan har qanday ma'lumot tashqi dunyoga proeksiyada aks etadi.

1) hayajonni boshdan kechirish istagi. Ommaviy zo'ravonlikning hayajonlanish darajasiga ta'siri yurak urishi va terining harorati o'lchanadigan tajribalarda aks etgan...; bizning tadqiqotimizda 450 nafar maktab o'quvchilari orasida 13,1% zo'ravonlik bilan bog'liq asosiy omillar orasida hayajonni qayd etdi, ushbu yoshdagi respondentlarning yana 9,1% i o'zlarining hissiy jonliligini ta'kidladilar;

2) deyarli tajovuzni boshdan kechirish istagi (empatiya effekti). Ko'plab ommaviy axborot vositalarini qabul qiluvchilar deyarli tajovuzkor harakatlarda ishtirok etishni yaxshi ko'radilar. Masalan, tadqiqotlardan birida maktab o'quvchilarining 48 foizi har doim jabrlanuvchiga hamdard ekanliklarini, 45 foizi esa har doim "yomon odam"ga hamdard bo'lishlarini aytishdi. Bir oz ko'proq (59%) ular "yaxshi qahramonlar" bo'lishni xohlashlarini ta'kidladilar. Ozchilik (39%) odamlar ekranda jang qilishlari, bir-birlariga zarar yetkazishlari va hokazolarni tomosha qilishni yaxshi ko'rishlarini tan olishdi. Ushbu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, zo'ravonlik sahnalarining tabiiy tasvirini o'z ichiga olgan media-matnlarga bo'lgan ishtiyoq bunday sahnalarni ko'rib chiqishdan zavqlanish jarayoni bilan bevosita bog'liq, tajovuzkor bilan tez-tez identifikatsiya qilish emas, balki ijobiy belgi yoki qurbon bilan;

3) cheklovlarga e'tibor bermaslik ("taqiqlangan homila" ta'siri): ota-onalar ko'pincha bolalarning ommaviy axborot vositalarining zo'ravonligiga kirishini cheklashadi, bu esa ushbu turdagi epizodlarni voyaga yetmaganlarning ma'lum bir qismi uchun yanada yoqimli qiladi;

4) o'z tajribalarini aks ettiruvchi zo'ravonlik va tajovuzni ko'rishga urinish. Shu ma'noda, tajovuzkor odamlar o'ziga xos xatti-harakatlarini ko'rsatadigan dasturlarni tomosha qilishni yaxshi ko'radilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, haqiqiy hayotda tajovuzkor bo'lgan odamlar ko'proq tajovuzkor dasturlarni tanlaydilar... Ushbu topilma K.A. Tarasovning "xavf guruhi"deb nomlangan tadqiqotlari bilan tasdiqlangan…

5) atrofdagi jinoiy dunyoni o'rganish (ushbu auditoriyaning jamiyatida va yashash joylarida zo'ravonlik rolini tushunish); "zo'ravonlik ularning ijtimoiy doirasining ajralmas qismi bo'lgan odamlar ekrandagi zo'ravonlikka ko'proq qiziqishadi"…

6) o'z-o'zini tinchlantirish (oldindan sezish effekti): zo'ravonlik sahnalarini o'z ichiga olgan media-matnlar bilan aloqa qilish ba'zan odamlarga o'zlarining

hayotiy qo‘rquvlari va haqiqiy muammolaridan chalg‘itishga yordam beradi, chunki, masalan, teleseriallarning odatiy syujeti tartib va huquqning g‘alabasi bilan tugaydi... men suhbatlashgan har o‘ninchi maktab o‘quvchisi ularni media-matnlarga jalb qiladigan rekreatsion omil haqida aytib o‘tdi;

7) gender effekti (ijtimoiylashuvning gender tarkibiy qismidagi zo‘ravonlikning roli). Bolalar auditoriyasida zo‘ravonlik sahnalarini idrok etishda gender farqi mavjud. “O‘g‘il bolalar va qizlar bir xil teleko‘rsatuvni tomosha qilganda, birinchisi “tajovuz effekti”ga ko‘proq moyil bo‘lishi va odatdagi tajovuzkor erkak xarakteriga ega bo‘lishi mumkin, qizlar esa odatiy ayol qurbon xarakterini aniqlagani uchun qo‘rquvni ko‘proq his qilishadi”...; bizning tadqiqotimiz davomida aniq qayd etilishicha, ekrandagi zo‘ravonlikning faol muxlislari orasida erkak maktab o‘quvchilari ayollarga qaraganda ikki baravar ko‘p. Men so‘rovda qatnashgan 7 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan 450 nafar o‘quvchi orasida ekrandagi zo‘ravonlik muxlislarining 21,0 foizi o‘g‘il/o‘g‘il, atigi 12,4 foizi qiz/qiz edi. Ushbu xulosalar boshqa rus tadqiqotchilari tomonidan tasdiqlangan…

Xulosa qilib shuni ta’kidlashni istardimki, televizor ommaning ruhiy ongining eng kuchli stimulyatori bo‘lib, ham salbiy, ham ijobiy funksiyalarga ega. Biz allaqachon televizorning salbiy ta’siri haqida gaplashdik. Televizor yordamida manipulyatsiya – bu ommaviy psixikaga ta’sir qilishning eng samarali usullaridan biridir. Shu bilan birga, televizor texnologiyalarining ijobiy roli haqida gapirish kerak. Televizion eshittirishda shaxsning ruhiyatiga katta va ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatiladi. Televizor bir vaqtning o‘zida ko‘rish va eshitish organlarini jalb qiladi, kollektiv ongsizlikning u yoki bu arxetipiga ta’sir qiladi va shu tariqa shaxsning psixikasi tomonidan umuman ma’lumotni idrok etishga qaratilgan video ketma-ketligi shaxs oldida o‘tadi. Va bunday murakkab tartib, siz bilganingizdek, shaxs ruhiyatining ta’sirini oshirishga katta hissa qo‘shadi. Shaxs psixikasining tanqidiyligi to‘sig‘i zaiflashadi. Bu shuni anglatadiki, tashqi dunyodan olingan ma’lumotlar psixikaning mazmunini tezroq to‘ldiradi, ong ostiga tushadi va ongga ta’sir qiladi, ya’ni shaxsning keyingi xatti-harakatlarini boshqaradi (tegishli yo‘nalishdagi fikrlarning tug‘ilishi orqali va boshqalar). Aynan shu omil manipulyatsion texnologiyalarda qo‘llaniladi. Manipulyatsiya – bu shaxsning oldingi munosabatlarini o‘zgartirish uchun bilinçaltına va keyinchalik ongga (bilinçaltı orqali ongga) ta’sir qilish. Bundan tashqari, o‘zgarishlarning o‘zi ham salbiy, ham ijobiy bo‘lishi mumkin. Ikkinchisi, masalan, o‘qitish yoki tarbiyalashda ishlatiladi. Shu bilan birga, yana bir bor ta’kidlaymizki, agar siz ongsiz ongga ta’sir ko‘rsatadigan shunga o‘xshash jarayonni qursangiz, o‘rganish samaradorligi ancha yuqori bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi loyihalarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 29-avgustdagi PQ-3245-son qarori.

2. Karimov I.A. “Yuksak mahnaviyat yengilmas kuch”. Toshkent. Ma’naviyat 2008-yil.

3. Korolyov G.A. “Manipilative psychology”. 2002.

4. Zelinskiy S.A. “Shaxsiyat va ommani manipulyatsiya qilish”. Sofiya. 2008.

5. Polikarpova E.V. “Zamonaviy jamiyatda ommaviy axborot vositalarining aksiologik funksiyalari”. Rostov-Don. 2002.

6. Xarris R. “Ommaviy aloqa psixologiyasi” M., 2002.

UDK: 372.879.6



Yaxyayev Dilmurod Karimovich,
Toshkent shahar 238-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi 1-toifali jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi

JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARI KASBIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISHNING SAMARALI USULLARI

Annotatsiya. *Maqolada jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish usullari va ularning tahlili bayon etilgan. Shu maqsadda keng ko‘lamli umumiy va fanga oid kompetensiyalarni o‘rganish uchun o‘z-o‘zidan boshqariladigan so‘rovnoma ishlab chiqilgan. Ishtirokchilar, ya’ni 20 ta jismoniy tarbiya o‘qituvchilari o‘zlarining kasbiy malakalarini to‘rt darajali Likert shkalasi bo‘yicha baholadilar. Faktor tahlili kompetentlik sohasining ichki tuzilishini tekshirish uchun ishlatiladi.*

Ushbu tadqiqot natijalari kelajakda jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash bo‘yicha o‘quv dasturlarini yangilashda yordam berishi mumkin.

Kalit so‘z va iboralar: *strukturaviy jismoniy tarbiya dasturlari, jismoniy tarbiya, o‘qituvchilar, kasbiy sohalar, idrok etilgan kompetensiyalar.*

ЭФФЕКТИВНЫЕ ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

Аннотация. *В статье описаны методы развития профессиональных компетенций учителей физического воспитания и их анализ. С этой целью был разработан опросник для самостоятельного заполнения для изучения широкого спектра общих и предметных компетенций. Участники, 20 учителей физкультуры, оценили свою профессиональную квалификацию по*

четырехбалльной шкале Лайкерта. Факторный анализ используется для изучения внутренней структуры области компетенции.

Результаты данного исследования могут помочь в обновлении образовательных программ подготовки учителей физического воспитания в будущем.

***Ключевые слова и фразы**: структурированные программы физического воспитания, физическое воспитание, учителя, профессиональные области, воспринимаемые компетенции.*

EFFECTIVE WAYS TO IMPROVE THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

***Abstract.** The methods of developing professional competences of physical education teachers and their analysis are described in the article. For this purpose, a self-administered questionnaire was developed to study a wide range of general and subject-specific competencies. The participants, 20 physical education teachers, rated their professional qualifications on a four-point Likert scale. Factor analysis is used to examine the internal structure of a competency domain.*

The results of this research can help in updating the educational programs for the training of physical education teachers in the future.

***Key words and phrases**: structured physical education programs, physical education, teachers, professional fields, perceived competencies.*

Kirish. O‘qituvchilar va ularning malakasi sifatli ta’limni amalga oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi[9]. Kompetensiya bilimlar, ko‘nikmalar, tushunchalar, qadriyatlar, munosabatlar va istaklarning ma’lum bir sohada samarali, mujassamlangan insoniy harakatlariga olib keladigan murakkab birikma sifatida tavsiflanadi. Yevropada ta’lim tizimida 30 ta eng dolzarb umumiy kompetensiyalar tavsiflangan va uchta kengroq toifaga bo‘lingan: instrumental yoki amaliy kompetensiyalar, shaxslararo kompetensiyalar va tizimli kompetensiyalar.

Ta’lim sohasida kompetensiyalarni umumiy (universal yoki fandan mustaqil) va maxsus shakllarga bo‘lish mumkin. Ikkala tur ham faqat ular olingan kontekstda emas, balki turli vaziyatlarda foydalanish uchun mavjud bo‘lishi kerak. Umumiy kompetensiyalar muloqot, jamoada ishlash, bilimlarni egallash va uzatish qobiliyati va umrbod ta’lim bilan bog‘liq bo‘lsa, maxsus kompetensiyalar individual o‘qitish fanlari bilan bog‘liq.

So‘nggi paytlarda o‘qituvchilar kompetentlarining beshta yangi yo‘nalishi aniqlandi: zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitish, alohida ehtiyojli bolalarni integratsiyalash, bolalarning madaniy aralash guruhlari bilan ishlash, turli ma’muriy vazifalarga ega maktablarni boshqarish.

Matereal va usullar

Ushbu tadqiqot jismoniy tarbiyaning ruhiy salomatlikka qanday ta'sir qilishini o'rganish uchun eklektik yondashuvni qo'llaydi. Shuningdek, u kvazi-eksperimental usulni va ob'ektiv baholash uchun miqdoriy o'lchovlarni, shuningdek sub'ektiv idrok etish uchun sifat usullarini qo'llaydi. Ushbu usul statistik ta'sirlarning umumiy ko'rinishini va jismoniy tarbiyaning ruhiy salomatlik bilan bog'liqligiga oid nuansli nuqtai nazarlarni taqdim etadi.

Natija va muhokamalar

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining maktab o'quvchilari faoliyatidagi samaradorligi, shuningdek, jismoniy tarbiya o'qituvchilari ta'limining samaradorligi turli tadqiqot paradigmalari doirasida o'rganilgan. Dalillar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning maktabdagi faoliyati sifati jismoniy tarbiya o'qituvchisi va ularning o'qitish sifatiga juda bog'liq[6]. Shunday qilib, jismoniy tarbiya o'qituvchilarining samaradorligi va ularning o'qitish samaradorligi bo'yicha tadqiqotlar jismoniy ta'lim tadqiqotining markaziy mavzusiga aylandi. Shu munosabat bilan, so'nggi 15 yil ichida jismoniy tarbiya o'qituvchilari va jismoniy tarbiya ta'limi samaradorligi bo'yicha tadqiqotlarda kompetensiyaga yo'naltirilgan o'zgarishlar yuz berdi.

Kompetentlikka yo'naltirilgan jismoniy tarbiya o'qituvchisi tadqiqotiga e'tibor qaratsak, bu konsolidatsiya bosqichida ekanligi va kompetensiya konstruktsiyasining afzalliklari to'liq tushunilmaganligi ayon bo'ladi. Bundan tashqari, "kompetentlik" atamasi jismoniy tarbiya o'qituvchilari tadqiqotida turlicha qo'llaniladi. Shunga ko'ra, ushbu nazariy maqola jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kompetensiyaga yo'naltirilgan tadqiqotlari doirasidagi tushunchalarni aniqlashtirish, turli kompetensiyalarga yo'naltirilgan jismoniy tarbiya o'qituvchilari tadqiqoti an'analarini taqdim etish va jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasining tipologiyasi va topologiyasi modelini yaratishga qaratilgan. Model real hayot faoliyati samaradorligini oshirishga quyidagi uchta rivojlanish komponenti orqali erishiladi, deb taxmin qiladi:

kompetensiya aspektlarini sifat jihatidan yaxshilash (masalan, kasbiy bilim);

idrok etish, talqin qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini yaxshilash;

o'z pedagogik amaliyotida sifat mezonlarini amalga oshirish bo'yicha maslahat amaliyoti orqali.

O'qituvchilarning maktab o'quvchilari faoliyatidagi samaradorligi, shuningdek, o'qituvchilar ta'limining samaradorligi 1960-yillardan boshlab shaxsiyat, jarayon-mahsulot[5], kognitiv-psixologik va hozirda ko'proq kompetentga yo'naltirilgan paradigmalar doirasida o'rganilib kelinmoqda.

Mavjud dalillar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning asosiy vazifasi (talabalarning rivojlanishiga yordam berish) va ta'limning asosiy vazifasi o'qituvchiga va ularning o'qitish sifatiga bog'liqdir. Bu, ayniqsa, jismoniy tarbiya o'qituvchilariga nisbatan o'rganilgan.

"Kompetensiya" atamasi turli xil usullarda qo'llaniladi.

Terminlarning bu tarqalishi, eng muhimi, kompetensiyaga yo‘naltirilgan tadqiqotlaridagi turli an’analar bilan bog‘liq[7]. Shunga qaramay, jismoniy ta’lim tadqiqotlari kontekstida professional kompetensiyani modellashtirish va tizimlashtirishga ozgina hissa qo‘shiladi.

Ushbu maqola quyidagi to‘rtta maqsad bilan kontseptual hissa qo‘shadi:

(a) kompetensiyaga yo‘naltirilgan jismoniy ta’lim tadqiqotlari doirasidagi atamalar bilan bog‘liq tushunchalarni aniqlashtirish va Baumert, Kunter, Blömeke va boshqalarning kompetensiya modellari o‘rtasida sintez yaratish.

(b) turli kompetensiyalarga yo‘naltirilgan jismoniy ta’lim tadqiqot an’analarini taqdim etish;

(c) jismoniy tarbiya o‘qituvchilariga yaxshi va samarali o‘qitish uchun zarur bo‘lgan tegishli faoliyat sohalari tipologiyasini yaratish;

(d) jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasining tipologiyasi va topologiyasi modelini taqdim etish.

Etimologik jihatdan "kompetentlik" atamasi lotincha "competere" fe'lidan kelib chiqqan bo‘lib, uni "mos kelish" deb tarjima qilish mumkin. Shu ma’noda, agar u professional vaziyatlarda muvaffaqiyatli bajarish uchun talablarni bajarish uchun etarli resurslarga ega bo‘lsa, shaxs vakolatli hisoblanadi. Maqsadlilikning sifat darajasiga yo‘naltirilgan atamaning utilitar ishlatilishi keng tarqalgan bo‘lib qabul qilingan[10].

Kompetensiya egallash va o‘rganish mumkin bo‘lgan konstruksiya sifatida talqin etiladi, uni o‘rganish va maslahatlashuv amaliyoti orqali yaxshilash mumkin[4].

"Kasbiy kompetensiya" umumiy atamasi kasb doirasidagi kompetensiyaning butun tuzilishini tavsiflash uchun ishlatiladi va kompetensiyaning turli qirralarini birlashtiradi.

Taxmin qilish mumkinki, "haqiqiy dunyoda ishlash" (mahorat ma'nosida) tavsiflovchi konstruktsiyasi kasbiy kompetensiyaning yashirin tushuntirish konstruktsiyasidan kelib chiqadi, ya'ni yuqori professional malakaga ega bo‘lgan jismoniy tarbiya o‘qituvchilari ko‘pincha boshqalarga qaraganda yaxshiroq ishlaydi. Kasbiy kompetensiya va samaradorlik shunday (yaqindan) bog‘liqdir. Biroq, kasbiy kompetensiyadan ishlashgacha chiziqli xulosa chiqarish muammoli, chunki, masalan, kasbiy bilimlarning kompetensiya jihatini o‘z amaliyotida amalga oshirish qo‘shimcha ko‘rsatkichdir.

Xulosa

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari bolalar rivojlanishining biologik-sog‘lig‘i qoidalarini va o‘qitishning pedagogik-didaktik jihatlarini tushunish, shuningdek, yaxshi muloqot qilishda o‘zlarining malakalarini yuqori baholaydilar. Shu bilan birga, sportning ijtimoiy jihatlari, ko‘p madaniyatlilik, xavfsizlik va axloq, ularning pedagogik g‘oyalarining moslashuvi birinchi o‘rinda turadi, shu bilan birga, ularning chet tilida muloqot qilish, ilmiy tadqiqot ishlari, sportning falsafiy va tarixiy jihatlari anglashi muhim.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari AKT texnologiyasidan foydalanishga emas, balki o‘zlarining motorli ko‘nikmalarini namoyish etishga yo‘naltirilgan. Shunga qaramay, o‘qituvchilarning professional martabalari uzoqroq bo‘lganligi sababli, ular AKTdan foydalanish ularning namoyishlarini samarali ravishda almashtirishi va yosh bilan ortib borayotgan potentsial jarohatlar sonini kamaytirishi mumkin. O‘quv rejasiga kirmaydigan mavzularni o‘qitish usullarini ko‘rsatish va tushunish qobiliyatining past baholanishi jismoniy tarbiya o‘qituvchilari yoshlarga o‘smirlar bo‘sh vaqtlarida qatnashadigan sport turlari emas, balki asosan an’anaviy sport turlarini taklif qilishlarini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baumert, J., & Kunter, M. (2013). The COACTIV model of teachers’ professional competence. In M. Kunter, J. Baumert, W. Blum, U. Klusmann, S. Krauss & M. Neubrand (Eds.), Cognitive activation in the mathematics classroom and professional competence of teachers: results from the COACTIV project (pp. 25–48). New York: Springer.

2. Baumgartner, M. (2017b). Performanzentwicklung in der Ausbildung von Lehrkräften. Eine Interventionsstudie zur Verbesserung des Feedbacks bei angehenden Sportlehrkräften. Münster: Waxmann.

3. Baumgartner, M. (2022). Professionelle Kompetenz(en) von Sportlehrkräften – Begriffe, Traditionen, Modellierungen und Perspektiven. In R. Sygusch, J. Hapke, S. Liebl & C. Töpfer (Eds.), Kompetenzorientierung im Sport. Grundlagen, Modellentwurf und Anwendungsbeispiele (pp. 27–41). Schorndorf: Hofmann.

4. Blömeke, S., Gustafsson, J., & Shavelson, R. (2015). Beyond dichotomies: competence viewed as a continuum. Zeitschrift für Psychologie, 223(1), 3–13.

5. Brophy, J., & Good, T. (1986). Teacher behavior and student achievement. In M. Wittrock (Ed.), Handbook of research on teaching (pp. 328–377). New York: Macmillan.

6. Deakin Crick, R. (2008). Pedagogy for citizenship. In F. Oser & W. Veugelers (Eds.), Getting involved: Global citizenship development and sources of moral values (pp. 31-55). Rotterdam: Sense Publishers.

7. Gonzales, J., & Wagenaar, R. (2003). Tuning educational structures in Europe. Final report. Bilbao: Universidad de Deusto.

8. McClelland, D. (1973). Testing for competence rather than for “intelligence”. American Psychologist, 28(1), 1–14.

SCIENCE AND INNOVATION NEWS LLC "SCIENCE AND EDUCATION NEWS" EDITORIAL BOARD

UDK: 372.3/.4



Muhiddinova Nozima Xolmirzayeva,
Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi
26-DMTT tarbiyachisi

MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Annotatsiya. *Maktabgacha ta'limda bolalarni tarbiyalashda, ularning kelajakda yetuk va barkamol shaxs sifatida kamol topishida albatta tarbiyachilarning o'rni katta hisoblanadi. Shunday ekan bolalarga ta'lim-tarbiya berishda yangi zamonaviy uslublardan foydalanish bolalarni yangi zamon ruhida tarbiyalanishida, ularni yetuk inson bo'lishida va kelajakda o'z kasbining mutaxassisi bo'lib yetishida asosiy omil bo'ladi, desak to'g'ri bo'ladi. Ushbu maqolada shu fikrlarning asosini ko'rib chiqish mumkin.*

Kalit so'zlar: *didaktik o'yinlar, aqliy qobiliyat, imkoniyatlar, shart-sharoit, taqlid, innovatsiya, tafakkur, motivatsiya, sog'lom raqobat.*

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. *Воспитателям принадлежит большая роль в воспитании детей дошкольного образования, в их развитии в будущем как зрелой и всесторонне развитой личности. Поэтому правильно сказать, что использование новых современных методов в воспитании детей является главным фактором воспитания детей в духе новой эпохи, превращения их в зрелых людей и становящихся в будущем специалистами своей профессии. В данной статье рассматриваются основы этих идей.*

Ключевые слова: *дидактические игры, умственные способости, возможности, условия, имитация, инновации, мышление, мотивация, здоровая конкуренция.*

MODERN METHODS OF TEACHING CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION

Abstract. *Educators have a great role in raising children in preschool education, in their development as a mature and well-rounded person in the future. Therefore, it is correct to say that the use of new modern methods in the education of children is the main factor in raising children in the spirit of the new age, making them mature people and becoming experts in their profession in the future. . This article examines the basis of these ideas.*

Keywords: *didactic games, mental ability, opportunities, conditions, imitation, innovation, thinking, motivation, healthy competition.*

Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim-tarbiya jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish, tashkilotlarni zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan tarbiyachilar bilan to‘ldirish hamda ularda kasbiy malaka, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish, uzluksiz ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Respublikamizda uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlariga, shu jumladan maktabgacha ta’lim bosqichiga ham e’tibor ortib borishi bilan bir qatorda, maktabgacha yoshdagi bolalarni, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga jalb etish ulushi
kamayib borishi bu borada maqsadli tadqiqotlar olib borish mamalakatimiz ilmiy texnikaviy dasturi, ustuvor tadqiqotlar yo‘nalishlarining bir qismi sifatida qaralishi mumkin. Zero, ta’kidlab o‘tganimizdek, uzluksiz ta’lim bosqichlarining samarali ishlashi ma’lum darajada maktabgacha ta’lim sifatiga bog‘liq bo‘lib, bu davrda bolaning dunyoqarashi, tasavvurlari shakllanib bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta’limni uyda, ota-onalarning mustaqil ta’lim berishi orqali, shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga jalb qilinmagan bolalar uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida, maktablarda yoki majburiy ta’lim guruhlari va markazlarda ta’lim olish imkoniyatlari beriladi. Bu yerda ular haftada 2-3 marta shug‘ullanishadi. Ota-onalarga maktabgacha ta’lim shaklini tanlash huquqi beriladi. Majburiy ta’lim yo‘nalishi esa kunning yarim qismidagina shug‘ullanilib, bepul ta’lim yo‘nalishi hisoblanib, har kuni qatnash talab etiladi. Bunda asosan 6-7 yoshli bolalar shug‘ullanadi. 6-7 yoshli bolaning maktab ta’limiga tayyorligini aniqlashda maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchilar, asosiy shart esa, bolaning maktabga tayyorligi maktabgacha va maktab davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun ko‘rik

vazifasini o‘tashini, oila yoki maktabgacha ta’lim tashkilotidagi ta’lim-tarbiya sharoitlarida maktab ta’limiga ozorsiz o‘tkazishni ta’minlash zarurligini hisobga olishlari lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta’limiga o‘tishi, hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munsoabatlarida anchayin jiddiy o‘zgarishlarni yuzaga chiqardi. Shuning uchun bolani uy sharoitidayoq maktab ta’limiga tayyorlash, uni uncha qiyin bo‘lmagan bilim, tushuncha, ko‘nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo‘ladi.

Texnologiya yunoncha ikkita “texno”, “logiya” so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, mohirlik, ustalik to‘g‘risidagi ta’limot degan ma’noni anglatadi. Yangi pedagogik texnologiya esa shu paytgacha ta’lim-tarbiya berishda foydalanib kelgan an’anaviy uslublardan voz kechgan holda yangi, qildiradigan, ijodiy izlanishga chorlaydigan uslublar yig‘indisidan mohirlik bilan foydalanishadi. Maktabgacha ta’lim tizimida predmetli yo‘nalish mavjud edi. Predmetli ta’lim maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘zining mazmuniga ko‘ra tobora murakkablashib, maktab ta’limiga yaqinlashib boradi. Natijada bolaning o‘yin faoliyatiga asoslangan rivojlanish jarayoni uning ruhiy rivojlanishi bilan nomuvofiq murakkab ta’lim jarayoni bilan almashtirildi.

Bu holat tarbiyalanuvchilar dastur vazifalarining o‘zlashtirishlariga ham o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim sohasida xalqaro aloqalarga keng o‘rin berilib, rivojlangan mamlakatlar, jumladan, Koreya, Finlandiya, Germaniya, Gollandiya tajribalari o‘rganilib, hududiy va milliy xususiyatlarimiz hisobga olingan holda, O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ijodiy qo‘llanilmoqda. Bunda bolalar uchun, faoliyatlar jarayonida turli multimediyalardan foydalanish hamda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha dastlabki bilimlarni berib borish nazarda tutiladi.

Maktabgacha ta’limda zamonaviy ta’limdan foydalanishda Mariya Montessori ta’limini qo‘llash ham samarali usul hisoblanadi.

Mariya Montessori ilmiy izlanuvchan, tabiatshunos, vrach, psixolog bo‘lib, Italiyada yashab ijod etgan, Gollandiyada vafot etgan. Uning maktabgacha tarbiya sohasida pedagogik faoliyatini butun dunyo xalqlari biladi. U bolalar bilan ishlash jarayonida bolalarga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlarni: ularning qobiliyatlari, qiziqqishlari, bilim darajalarini o‘rgandi. Shularga asoslanib didaktik o‘yinlar va didaktik materiallar yaratdi. Uning fikricha, pedagogika bolaga yordam bermaydi balki, tarbiyachiga yordam beradi. Haqiqatdan ham shunday. O‘rgatish uslubi bolalarning istagi, qiziqishi, mushohada qilishi bilan bog‘lanmas ekan, bu uslubning samarasi to‘g‘risida o‘ylamasa ham bo‘ladi. Biz o‘rganib qolgan eski uslubga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bolalarning istak xohishini hisobga olmasdan hammasini yig‘ib, majburlab gapimizni eshitishi, xuddi shunday qilib hikoya qilib berish, namunadagiday rasm chizish talab qilinar edi. Bunday holat bolani chegaralab uning erkin harakat qilish, mustaqil fikr yuritish, ijodkorlik sifatlarini

shakllanishiga to‘sqinlik qilar edi. Avvalo bola bilan ishlaganda, unga motivatsiya berish va uning bajargan ishi juda ajoyib bo‘lib, u bundanda yaxshiroq bajara olishi mumkinligi haqida aytib o‘tilishi muhim hisoblanadi. Bolani kimlar bilandir solishtirib, shunga o‘xshashga undashlik bu juda katta xato hisoblanadi. Natijada faqat bola ko‘r-ko‘rona o‘zgalarga taqlid qilishdan nariga o‘tmaydi. Bolalik, bu inson umrining bir bo‘lagidir. Inson butun umr bo‘yi oladigan bilimning eng ko‘p qismini ayniqsa maktabgacha tarbiya yoshida egallaydi. Yoshligidan istak, hohishi bo‘yicha harakat
qilishi, o‘ylashi mustaqil fikrlashi uchun oilada ham, bolalar bog‘chasida ham kattalar tomonidan sharoit yaratilishi zarur. Bola “kim bilan”, “qachon”, “nima bilan” shug‘ullanilishini o‘zi hal qilsin. Masalan: hal qilishning barcha bosqichlarini o‘zi yecha olsagina mantiqiy fikrlashi rivojlanib boraveradi. Bola tomonidan beriladigan savollarga to‘g‘ri va tez javob berishi uchun kattalar shoshilmasligi kerak.

Kech bo‘lsa ham bola o‘z xatosini o‘zi to‘g‘rilasin, o‘z fikrining to‘g‘riligini o‘zi dadil turib isbotlay olsin. M.Montessori pedagogikasining ahamiyati xuddi shunday sifatlarni tarbiyalashga, aqliy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilganligidadir. U yaratgan o‘yinlar sezgi organlari: ko‘rish, eshitish, his qilish, hid bilish, ta’m bilish orqali narsa va hodisalarni bilib olishga mo‘ljallangan. Bu jarayonni rivojlantirishda esa turli o‘yinlardan foydalanish mumkin hisoblanadi. Masalan: “Kvadrat tuz”, “Bo‘sh katakni to‘ldir”, “nuqtalar o‘yini”, “Loto”, “Rangiga qarab o‘rnini top”, “O‘z o‘rnini top”, “Qaysi biri ortiqcha” o‘yinlari shular jumlasidandir.

Atoqli italiyalik pedagok, psixiatr vrach M.Montessori 1870-1952-yillarda yashab ijod etgan. U asos solgan bolalar uylariga maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar jalb qilinib, u yerda tarbiyaning o‘ziga xos tizimi amalga oshirildi. U tuyg‘u organlarini tarbiyalashni birinchi o‘ringa qo‘yadi, buning uchun tegishli didaktik material ishlab chiqadi. Mashqlar sistemasi bolalarda muayyan ko‘nikma va malakalarni: predmetlarni shakliga, vazni va rangiga qarab farqlash, xilma-xil ovoz va hidlarni bilish ko‘nikmalarini hosil qilishga qaratilgan. Montessori foydalanadigan didaktik materiallar o‘z-o‘zini nazorat qilish prinsipiga muvofiq yaratilgan bo‘lib, bolalarga, pedagogning ishtirokisiz, mustaqil shug‘ullanish imkonini beradi. Lekin bunda sezgi organlarining rivojlanishi nutqning o‘sishi bilan bog‘lanmas edi.

Kattalar tomonidan majburlash, “uni o‘yna”, “buni o‘yna”, “xato qilding”, “mana bunday bajar” qabilida ish tutish M. Montessori pedagogikasiga zid uslublardir. Uning ta’limi “O‘zim bajarishim uchun menga yordam ber” qabilida ish yuritishga asoslangandir. Bola erkin “kim bilan”, “nima bilan”, “qachon” tushunchalarini o‘zi hal qilsin. O‘zi ko‘rib, eshitib, harakat qilib, paypaslab mushohada, ya’ni mantiqiy fikrlay olsin.

Maktabgacha ta’lim sohasida pedogogik jarayonga hozirgi kun talablari bolalarni erkin fikrlashga undovchi qanday topshiriqlar, ta’limiy o‘yinlardan

foydalanish lozimligi to‘g‘risida tushuncha beradi. Bolalarda erkin fikrlilikni tarbiyalash istagi xalqimizda qadimdan mavjudligini ta’kidlash uchun Xoja Nasriddin haqidagi rivoyatlarga ham to‘xtalib o‘tish mumkin.

Bola tengdoshlari bilan muloqot qilganda, ularning yutuqlarini ko‘rganda, g‘arazlik bilan emas, balki sog‘lom raqobat asosida harakat qilishi va ushbu yutuqlarga erishishi uchun, shart-sharoit hamda tanlov imkoniyatlari berilishi muhim hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bola atorofidagi narsalar bilan bevosita amaliy munosabatda bo‘lishga intiladi. Bu o‘rinda shu narsa xarakterliki bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o‘zining haddi sig‘adigan narsalar bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo‘lgan o‘zining kuchi ham yetmaydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo‘lishga intiladi. Buning natijasida bolalarda haddan tashqari tez ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o‘rtasida keskin qarama-qarshilik yuzaga keladi.

Yuqoridagi mulohazalar asosida aytish mumkinki, katta kishilar hayoti va faoliyatining o‘rnini bosuvchi ashyolar ularning harakatini umumlashgan holda ifodalashning moddiy tayanchi hisoblanadi. Shunday ekan, o‘yin faoliyatida bola harakatining rivojlanishi o‘yin mazmuniga ko‘proq bog‘liqdir. Chunki bolaning xatti-harakati qanchalik ixcham va umumlashgan bo‘lsa, u kattalarning faoliyati mazmunini aks ettirishdan shunchalik yiroqlashadi.

Binobarin, u odamlarning narsalarga va bir-biriga munosabatini amalda bajarishga o‘tadi va shuning uchun narsalar bilan harakat qilishda kattalarning ijtimoiy munosabatlarini to‘g‘ri ifodalashga intiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’limi to‘g‘risida»gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. “Ma’rifat” gazetasi. Toshkent – 1997-yil 1-oktabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-4312-son Qarori.

3. Abdullayeva N.Sh. Maktabgacha ta’limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish: Avtoref. ...ped. fan.fals dok. (PhD) – T., 2019. – B. 22-23.

4.Abdurahimova D.A. Xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirish: Pedagogika fanlari doktori (DSc) … avtoreferati. – Toshkent, 2020. – 74 b. (B.31)

5. A’zamova M.N. Maktabga tayyorlov guruhlari tarbiyalanuvchilarida do‘stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirish: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. –Toshkent, 2020. –45 b. (B.18)

6. Ganjiyev F.F. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida ijtimoiy psixologik kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanishi: Psixologiya falsafa doktori (PhD) диссертацияси. –Buxoro, 2021. -169 b. (b.116-117).

UDK: 372.3/.4



Jurayeva Aziza Normamatovna,



Xammedova Shahlo Beginch qizi,
Termiz shahridagi 12-MTT tarbiyachilari

MAKTABGACHA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni, maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim berishni yana-da takomillashtirish hamda ta'lim olishda zamonaviy multimediali o'quv dasturini ishlab chiqishning ahamiyatliligi tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim samaradorligi, maktabgacha ta'lim tizimi, multimedia, zamonaviy axborot texnologiyalari, axborot maydoni, kompyuter ko'nikmalari, bola qobiliyati, mashg'ulotlar, aqliy rivojlanish.*

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В данной статье анализируется роль современных информационных технологий в повышении эффективности дошкольного образования, дальнейшем совершенствовании образования в системе дошкольного образования, а также важность разработки современной мультимедийной учебной программы в образовании.*

Ключевые слова: *эффективность образования, система дошкольного образования, мультимедийная программа, современные информационные технологии, информационное пространство, компьютерные навыки, способности ребенка, обучение, умственное развитие.*

THE ROLE AND IMPORTANCE OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN INCREASING THE EFFECTIVENESS OF PRESCHOOL EDUCATION

Annotation. *This article analyzes the role of modern information technologies in increasing the effectiveness of preschool education, further improving education in the preschool education system, as well as the importance of developing a modern multimedia curriculum in education.*

Key words: *effectiveness of education, preschool education system, multimedia program, modern information technologies, information space, computer skills, child's abilities, learning, mental development.*

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanib borayotgan hozirgi kompyuter asri davrida umumiy o‘rta ta’limning biror o‘quv fanini to‘liq ravishda yoki uning qaysidir qismini axborot kommunikatsion texnologiyalari (AKT)dan foydalanib o‘tsa qanday samara berishini, yoki axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashning pedagogik tamoyillarini, uning psixologik xususiyatlarini, uning bilish jarayoniga ta’sir qilish mexanizmi va omillarini, shuningdek, yana boshqa ko‘p jihatlarini kompleks tadqiq qilish dolzarb bo‘lib bormoqda. Bu esa ta’lim tizimida, xususan, o‘quv jarayonlarini tashkil etish va sifatli ta’lim berish, o‘quv-uslubiy ta’minotni rivojlantirish, ayniqsa, o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tish va o‘zlashtirish samaradorligini oshirish borasida yangicha mazmun va mohiyat shakllanishiga asos yaratmoqda. Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tizimining mazmuni va sifati bizning jamiyatimizning dolzarb masalalari va ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblanmoqda va uni rivojlantirish hamda samaradorligini oshirish usullari va tadbirlari izlanmoqda, shu bilan birga maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonida yangi axborot kommunikatsion texnologiyalarini joriy etish masalasi

ommalashtirilmoqda. Ayni paytda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev rahnamoligida respublikamizda ta'lim tizimini tubdan isloh etish jarayonida ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va undan samarali foydalanishni ta'minlash, ta'limga yangi axborot texnologiyalarini keng joriy etish, o'quv muassasalaridagi axborot-resurs markazlari faoliyatini zamonaviy talab va mezonlar asosida tashkil etish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuning uchun ham taraqqiyotimizning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini jadal rivojlantirish va takomillashtirish jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalarining samaradorligi beqiyosdir.

Hozirgi jadal rivojlanayotgan mamlakatimizda texnika va texnologiyaga bo'lgan ehtiyojlar yuqori o'rinni egallaydi. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimida bolaning texnikaga bo'lgan qiziqishi va texnologiyalardan foydalanish salohiyati bugungi kunda muhim o'rinni egallamoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiyalaridan qanday foydalanish mumkin, degan savol tug'iladi. Albatta, bolaga faqatgina mashg'ulotlarning o'zi kamlik qiladi. Chunki maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchisi ba'zilari tajribasiz va malakasi endi rivojlanayotgan bo'ladi. Shu sababdan, bolaning ongini rivojlantirish, unga mustaqil fikrlashni o'rgatish uchun texnologiyalardan foydalanib, turli xil ibratli filmlar yoki multfilmlar qo'yib berish, yoki bola tez charchashi va zerikib qolishi mumkin, shuni hisobga olgan holda turli enerjayzer o'yinlarni tomosha qilib, uni birgalikda bajarishi mumkin. Faqatgina o'yin yoki videorolikning o'zi bilan cheklanib qolmaslik kerak. Xususan, chiroyli jihozlangan xona yoki barcha sharoitga ega bo'lgan muassasalar hammaga birdek ma'qul kelishi joiz. Buni qanday qilish mumkin? Masalan, bola kirayotgan xona shinam, televizor va tarbiyachi uchun komputer, internetdan foydalanish uchun Wi-Fi, agar zamonaviy talablarga javob beruvchi muassasa bo'lsa, bola o'ynashi uchun texnik robot o'yinchoqlar bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Agar bola yoshlikdan texnika va texnologiyaga qiziqsa, u uchun barcha sharoitlar yaratilishi lozim. Chunki, hozirgi globallashuv jarayonida axborot-kommunikatsiyasining o'rni va IT sohasiga bo'lgan qiziqish hamda ehtiyojlar ancha yuqori.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ta'limning ilk bosqichi bo'lgan maktabgacha ta'lim sohasiga kiritilishi pedagog xodimlarning oldiga katta mas'uliyat qo'yilishi bilan birga, ularning o'z ustida ishlab, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha bilim saviyasini oshirishni, shuningdek, ularning izlanuvchanligi va ijodkorligini talab etadi. Maktabgacha ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishdan kutiladigan natijalar quyidagilarda yaqqol namoyon bo'ladi:

maktabgacha ta'lim sohasida ta'lim sifati va bolalarni maktabga tayyorlash samaradorligining yaxshilanishi;

bolalarning erkin fikrlashi doirasi va dunyoqarashining kengayishi;

bolalarning intellektual, ijtimoiy-hissiy va ijodiy rivojlanishi darajasining oshishi;

ota-onalar bilan maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligining yanada mustahkamlanishi va qulaylikni ta'minlashi.

Axborotlashtirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tayyorlov guruh xonalarini yetarlicha jihozlash, multimedia jihozlari uchun moslashtirish masalalarini hal etish, maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha savodxonligini oshirish ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bir necha yo'nalishlarda o'z ifodasini topadi:

a) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan masofaviy ta'limda pedagoglarning ota-onalar bilan hamkorlik jarayonida foydalanish;

b) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan bolalar bilan bo'lgan masofaviy ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish;

c) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan metodik ishlarni tashkil etishda, ta'lim sifatini oshirishda tarbiyachilar bilan ishlash jarayonida foydalanish.

Zamonaviy axborotlashgan jamiyat maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari oldiga bir qator vazifalarni qo'yadi. Eng avvalo, pedagog kompyuter o'yinlarini va ta'lim dasturlarini tanlashda bolaga boshchilik qilishi kerak. Buning uchun tarbiyachi kompyuter savodxonligini egallagan bo'lishi zarur, shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib borilayotgan ta'lim-tarbiya faoliyatida bevosita global internet tarmog'i resurslaridan unumli foydalana olishi muhim.

Maktabgacha yoshdagi bola hayotida o'yin – bu eng asosiy faoliyat turi hisoblanib, u bola shaxsining shakllanishi va rivojlanishi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Gap kompyuter o'yinlari haqida borar ekan, tarbiyachi o'yinlarning bola yoshi va axloq me'yorlariga mos kelishini hisobga olishi kerak. Kompyuter o'yinlaridan foydalanish bolalarga ta'lim berish samaradorligini oshirish bilan birga bolaning ijodiy va aqliy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda ijobiy natija beradi. Masalan, Paint dasturida bola rasm chizish jarayonida tasvirlagan predmet yoki hayvon, tabiat manzarasi yoki odam rasmiga rang tanlashi, mavjud ranglarni farqlashi, ularni joy-joyida ishlatishi, natijada o'z ishini baholashi davomida uning individual shaxs xususiyatlari, qiziqishlari oddiy qog'ozga rasm chizgandan ko'ra yaqqolroq ifodalanadi. Shu bilan birga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bolaga interfaol ta'lim berish vositasi sifatida uning yangi bilimlarni tez o'zlashtirishiga va dunyoqarashining kengayishiga imkon beradi. Bu interfaol kompyuter o'yinlari tarbiyachi tomonidan davlat talablariga mos ravishda Power Point dasturida va mashg'ulotda bolalar bilan birga o'ynash uchun yaratilgan bo'lishi zarur. Masalan, o'yin faoliyat markazida "Xatoni top", "Farqini top", "Nima kam?", "Shaklni joylashtir", "Rasmni bo'ya", "Qo'g'irchoqni kiyintiramiz" kabi ta'limiy o'yinlarni animatsion tasvirlar yordamida o'ynasa mavzuga oid berilgan bilimlarni bola zo'r qiziqish bilan o'zlashtiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasida an'anaviy ta'lim shakllari bilan kompyuterlashtirilgan pedagogik texnologiyalarni taqqoslaydigan bo'lsak,

kompyuterlashtirilgan texnologiyalarda samarali natijalar namoyon bo‘ladi. Kompyuter ekranida axborotning o‘yin shaklida aks etishi bolalarda shu faoliyat turiga nisbatan diqqat va qiziqishini uyg‘otadi; harakat, tovush, multiplikatsiya tasvirlari bola xotirasida uzoq vaqt taassurot qoldiradi. Muammoli masalalarning qo‘yilishi va ularninig to‘g‘ri yechimining kompyuter orqali topilishi bolalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim konsepsiyasida ko‘rsatilganidek, kompyuter bolaga alohida yondashuv imkonini yaratadi, bu jarayonda har bir bolada o‘z intellektual darajasida va shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib topshiriqni bajarishiga imkon bo‘ladi.

O‘z navbatida, bolalarda kompyuter va smartfonlardan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, ushbu texnika vositalarining ijobiy imkoniyatlari bilan birga salbiy tomonlari ham mavjudligini nazarda tutish zarur. U faqat ta’limning samaradorligini va zamonaviyligini ta’minlash uchun xizmat qilishi lozim.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining maktabgacha ta’limga kiritishidagi dolzarb muammolardan yana biri zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida pedagog xodimlar kompetentligining yetarli emasligidir. Bugungi kun pedagoglari zamon bilan hamnafas ravishda o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustaqil oshirib borishlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda o‘qitish sifatini oshirish o‘qituvchidan keng ko‘lamli bilim va malakalarni talab qilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari maktabgacha ta’lim tizimida pedagogik jarayonni tashkil etishda, uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatishda, metodik faoliyatni rejalashtirishda, pedagoglar, tibbiy xodimlar va boshqa mutaxassislar faoliyatini nazorat qilishda, butun bir tizimning aniq monitoringini olib borishda qulaylik yaratadi. Shu bilan birga ulardan noto‘g‘ri foydalanish bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Mazkur jarayon pedagoglar va ota-onalardan katta mas’uliyatni talab qiladi. Ular hamkorlikda bolaning har tomonlama riojlanishi uchun axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanishni ta’minlaydi. Zero, bugungi kunning eng dolzarb vazifasi ham kelajak egalari bo‘lgan yosh avlodga maktabgacha ta’lim bosqichidanoq sifatli ta’lim va tarbiya berishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Burxonova M.M. CISCO tarmoq texnologiyasi va uni kompyuter tarmoqlarini o‘qitishdagi o‘rni va samaradorligi. Интернаука. 2020. № 36 (165). C. 75-76.

2. Otaqulov, O. X., & Pulatova, G. A. Q. (2021). Sun’iy intellekt va uning insoniyat faoliyatida tutgan o‘rni. Scientific progress, 2(8), 929-935.

3. Saidahmedov N. “Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya” T-2002 yil.

4. Лазарева М.В. (2022) Современные информационные технологии и их роль в преподавании дисциплин программирования Educational Research in Universal Sciences, 2022 том 1 № 6, 213-216.

5. J.G‘.Yo‘ldoshev., F.Yo‘ldosheva., G.Yo`ldosheva “Interfaol ta`lim – sifat kafolati” Toshkent, –2008-yil.

